



FAMILY AND EDUCATION SYSTEM: ANALYSIS OF MODERN THEORETICAL CONCEPTS IN ENSURING YOUTH SOCIAL MOBILITY

Saydulla Isoqov

Senior Lecturer

Namangan Branch of the Tashkent International University of Chemistry

E-mail: saydulla.isoqov@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: family, education system, social mobility, policy mechanisms, credentialism, reflexivity, risk–opportunity.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the role of the family and education system in ensuring youth social mobility based on modern theoretical concepts. The theoretical framework draws on P. Sorokin's Social Mobility concept and A. Giddens' Structuration Theory, as well as the ideas of British and German scholars such as J. Goldthorpe, A. Heath, U. Beck, and R. Dahrendorf on stratification and equality of opportunity. In addition, studies by A. Yunusov, B. Tojiboyev, T. Norboyeva, and M. Kukhterina are examined in the context of family resources—economic, cultural, and social capital—and their interaction with educational institutions (early childhood education, general secondary, higher, and vocational education).

OILA VA TA'LIM TIZIMI: YOSHLARNING SOTSIAL MOBILIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY NAZARIY KONSEPSIYALAR TAHLILI

Saydulla Isoqov

Katta o'qituchi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

E-mail: saydulla.isoqov@mail.ru

Namangan, O'zbekistom

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila, ta'lim tizimi, sotsial mobillik, siyosiy mexanizmlar, credentializm, refleksivlik, risk–opportunity.

Annotatsiya: Mazkur maqola oila va ta'lim tizimining yoshlar sotsial mobilligini ta'minlashdagi o'rnini zamonaviy nazariy

konsepsiyalar asosida tahlil qiladi. Nazariy asos sifatida P.Sorokinning Social Mobility konsepsiyasi va A.Giddensning Structuration Theorisi hamda ingliz va nemis olimlari – J.Goldthorpe, A.Heath, U.Beck va R.Dahrendorfning tabaqalanish va imkoniyatlar tengligi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shu o'rinda A.Yunusov, B.Tojiboyev, T.Norboyeva hamda M.Kuxterina tadqiqotlari kontekstida oilaviy resurslar – iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy kapital nazariyalari asosida ta'lim tizimidagi institutlar (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, oliy ta'lim hamda kasbiy ta'lim)ning o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi.

СЕМЬЯ И СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Сайдулла Исақов

Старший преподаватель

Наманганского филиала Ташкентского международного химического университета

E-mail: saydulla.isoqov@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семья, система образования, социальная мобильность, политические механизмы, крeденциализм, рефлексивность, риск–возможность.

Аннотация: В данной статье анализируется роль семьи и системы образования в обеспечении социальной мобильности молодежи на основе современных теоретических концепций. Теоретическую основу составляют концепция социальной мобильности П. Сорокина и теория структуризации А. Гидденса, а также идеи британских и немецких ученых – Дж. Голдторпа, А. Хита, У. Бека и Р. Дарендорфа, посвященные стратификации и равенству возможностей. Кроме того, рассматриваются исследования А. Юнусова, Б. Тожибоева, Т. Норбоевой и М. Кухтериной в контексте семейных ресурсов – экономического, культурного и социального капитала – и их взаимодействия с образовательными институтами (дошкольное образование, среднее общее, высшее и профессиональное образование).

Krisih. Globalizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida sotsial mobillik – jamiyatda shaxs yoki ijtimoiy guruhning mavqe pog‘onalari bo‘ylab ko‘tarilish (yoki pasayish) jarayoni – iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy adolat va barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda [1; 54–55-b.]. Aholining katta qismini tashkil etadigan yoshlar uchun esa bu jarayon mehnat bozoriga kirish, barqaror daromadga erishish, ijtimoiy himoya va siyosiy ishtirokning mustahkamlanishi bilan bevosita bog‘liqdir [2; 67–70-b.]. Oila va ta‘lim tizimi hamkorligi – mazkur jarayonning eng nufuzli ikki institutidir: birinchisi resurslar, qadriyatlar va ijtimoiy tarmoqlarni uzatish (reproduksiya) orqali, ikkinchisi esa malaka, sertifikat va raqobatbardosh kompetensiyalar bilan ta‘minlash orqali yoshlarning ijtimoiy imkoniyatini kengaytiradi [3; 243-b.; 4; 90–92-b.].

So‘nggi yillarda xalqaro va milliy darajada oilaviy siyosat, maktabdagi teng imkoniyatlar, oliy ta‘limga kirishdagi adolat va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishga e‘tibor oshdi [5; 112–118-b.; 6; 56–60-b.]. Biroq, resurslar taqsimotidagi tarixiy nomutanosibliklar, hududlararo tafovutlar va madaniy kapitalning avlodlararo uzatilishi kabi omillar sababli, ta‘lim tizimi ko‘pincha tengsizlikni kamaytirish o‘rniga uni qayta ishlab chiqarishi mumkin [7; 34–36-b.]. Shunday sharoitda nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda, oila–ta‘lim hamkorligini qayta ko‘rib chiqish va samarali siyosiy mexanizmlarni aniqlash zarur [8; 72–74-b.; 9; 84-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sotsial mobillik nazariyasi dastlab P.Sorokin tomonidan ishlab chiqilib, jamiyatda shaxslarning mavqe pog‘onalari bo‘ylab ko‘tarilishi yoki pasayishi sifatida izohlangan. M.Weberning tabaqa va status haqidagi qarashlari ta‘lim va kasbiy mavqe o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bergan, R.Dahrendorf esa ta‘lim tizimini ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi kurash maydoni sifatida talqin qilgan. P.Bourdieu madaniy va ijtimoiy kapital nazariyalari orqali ta‘limning tengsizlikni qayta ishlab chiqarishdagi rolini ko‘rsatgan bo‘lsa Oila resurslari ham yoshlarning ta‘limdagi muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. J.Coleman ijtimoiy kapitalni bolaning o‘qishdagi natijalarini yaxshilovchi omil sifatida ko‘rsatgan ligi. O‘zbek va rus tadqiqotchilari A.Yunusov, M.Kuxterina va Y.Zubok – oilaning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy resurslari farzandning kasbiy yo‘nalishiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydilar. Xalqaro tajribada ham oila va ta‘lim tizimining o‘zaro ta’siri keng o‘rganilgan. Buyuk Britaniyada “Sure Start” va “Pupil Premium” dasturlari, AQShda “Head Start” va “TRIO” tashabbuslari bolalarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Qozog‘istonda “Keleshek”, O‘zbekistonda esa “El-Yurt Umidi” kabi dasturlar yoshlarning xalqaro ta‘lim va kasbiy tajribaga chiqishini qo‘llab-quvvatlamogda.

OECD va World Bank hisobotlari ta‘lim sotsial mobillikni oshirishning eng asosiy vositasi ekanini qayd etadi. Biroq, ular teng imkoniyat ta‘minlanmasa, ta‘lim tizimi mavjud tafovutlarni

kamaytirish emas, balki kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlashadi. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda dual ta’lim, chet tillari va IT ko’nikmalarni rivojlantirish kabi yo’nalishlarga alohida urg’u berilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola komparativ-analitik yondashuvga tayangan holda. Buyuk Britaniya, AQSH va O’zbekistonning oila va ta’lim hamkorligi siyosati hamda dasturlari nazariy kontekstda solishtirildi. Tahlilda konseptual model sifatida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kapitalning ta’lim natijalariga konversiyasi; strukturatsiya (tuzilma-agentlik dialektikasi); credentializm va mehnat bozoriga o’tish kanallari; shuningdek risklarni boshqarish (U.Beck) komponentlari ishlatildi.

Ma’lumot manbalari (Information sources). Ilmiy monografiyalar (P.Sorokin, A.Giddens, Goldthorpe, Heath, Dahrendorf, Beck), xalqaro hisobotlar (OECD, UNESCO, World Bank), vazirlik va agentlik siyosiy hujjatlari hamda ochiq ma’lumotlar (stsenariy va dastur manzillari) kontent-tahlil qilindi. Shuningdek O’zbekiston bo’yicha amaliy tashabbuslar (Maktabgacha ta’limni rivojlantirish, Prezident maktablari, “El-Yurt Umidi”, IT-Park, “Yoshlar daftari”) ochiq ma’lumotlar asosida ko’rib chiqildi.

Tahlil usullari. Kontent-tahlil, siyosiy hujjatlarni kodlash, konseptual xaritalash, o’xshashlik-farqlilik (most-different/most-similar) dizaynlari va mexanizmga yo’naltirilgan tahlil qo’llandi. Cheklovlar. Ma’lumotlar orasida aniqlik darajasi turlicha; dasturlar hududiy differensialga ega; uzoq muddatli natijalarning kontrfaktual tahlili alohida tadqiqotni talab qiladi. Ushbu tadqiqotda qo’llangan metodologik yondashuvlar natijalarni yanada ishonchli talqin qilishga imkon berdi. Shunga asoslanib, keyingi qismda biz xorijiy mamlakatlarda qo’llanilgan oilani va ta’limni qo’llab-quvvatlash dasturlarini ko’rib chiqamiz. Bu tajribalar O’zbekiston uchun qiyosiy o’rganish va moslashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalar: oila va ta’lim dasturlari (Foreign experiences: family and educational programs)

“Sure Start” dasturi Buyuk Britaniya tajribasi bo’lib, 1998 yilda boshlangan, unga ko’ra past daromadli hududlarda erta bolalik markazlari orqali ta’lim, sog’liq va ijtimoiy xizmatlarni integratsiya qilingan [10; 45–47-b.]. “Every Child Matters” (2003) dasturiga ko’ra Britaniya axolisi farzandlar farovonligini besh ustun bo’yicha tizimlashtirib, ta’lim sifatida yangi standartlar yaratdi [11; 90-b.]. “Pupil Premium” (2011) bu dasturda ijtimoiy yordam oluvchi bolalar uchun qo’shimcha moliyalashtirish mexanizmini joriy qilib, tengsizlikni kamaytirishga qaratildi [12.; 67-b.]. “Family Nurse Partnership” yosh onalar bilan individual ishlash orqali erta rivojlanish ko’rsatkichlarini yaxshilaganligi borasida Britaniya tajribasi ustunligini kuzatildi [13.; 118-b.]. “TEF” (Teaching Excellence Framework) va “Apprenticeship” dasturlari esa oliy ta’limda shaffoflik va mehnat bozoriga silliq o’tishni rag’batlantirilganligi [14.; 202–204-b.]. AQShda esa

bu borada “Head Start va Early Head Start” dasturlari bolalarning ta’lim, sog‘liq va ovqatlanishini kompleks shaklda qo‘llab-quvvatlaydi, ota-ona ishtirokini kuchaytiradi [15.; 33-b.]. “TRIO” dasturlari (Upward Bound, Talent Search, McNair) birinchi avlod va kam ta’minlangan talabalarni kollejga tayyorlashda muhim rol ekanligini dasturlansa [16.; 55–57-b.]. “Pell Grants” oliy ta’limda qaytarmas moliyaviy yordamning asosiy shakli ekanligi [17; 112-b.], “Title I” esa past daromadli maktablarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi aniq mexanizmlarning ishlab chiqilganligi hamda “Community Schools va Promise Neighborhoods” mahalla asosida integratsiyalashgan xizmatlar orqali o‘quv natijalarini yaxshilaganligini kuzatildi. [18; 86-b.]. bu borada xorijiy tajribalar asosida tadqiqotimizda O‘zbekistonda ham bir qator nufuzli dasturlardan “Maktabgacha ta’limni rivojlantirish” so‘nggi yillarda qamrovni kengaytirib, tarbiyachilar malakasini oshirish va ota-ona maslahat markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali sifat jihatdan sezilarli natijalarga erishmoqda [19; 23–25-b.]. Prezident maktablari va ixtisoslashgan ta’lim muassasalari STEM fanlari va xorijiy tillarga e’tiborni kuchaytirib, zamonaviy bilimlarni egallash imkoniyatini kengaytirmoqda [20; 78-b.]. Shuningdek, “El-Yurt Umidi” jamg‘armasi yoshlarni chet elda o‘qishga rag‘batlantirib, qaytib kelgach ular orqali xalqaro tajribani milliy ta’lim tizimiga transfer qilishni maqsad qilmoqda [21.; 65-b.]. “Yoshlar daftari” dasturi esa ta’lim, bandlik va kasbiy tayyorlash jarayonida ehtiyojmand yoshlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda [22; 40-b.]. Shu bilan birga, IT-Park va dasturlash bo‘yicha bootcamp’lar orqali yoshlarning raqamli ko‘nikmalari mustahkamlanib, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda [23; 52–53-b.]. O‘zbekistonda ta’lim islohotlari nafaqat qamrovni kengaytirishga, balki yoshlarni global mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashga qaratilganini ko‘rish mumkin. Bu jarayon oila va davlat siyosati qo‘shilgan holda, yoshlar sotsial mobilligini oshirishning eng muhim mexanizmlaridan biriga aylanmoqda.

Buyuk Britaniya, AQSh va O‘zbekiston misolida oila va ta’lim dasturlari xilma-xil yo‘nalishlarda amalga oshirilayotganini ko‘rdik. Endi ushbu tajribalarni nazariy asoslar bilan birga solishtirib, ularning kuchli va zaif jihatlarini muhokama qilamiz. Bu jarayon milliy sharoitda qaysi yondashuvlar samaraliroq bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.

Taqqoslama tahlil va muhokama. Tadqiqot davomida, Britaniya modeli erta bolalikdan boshlab tenglikni ta’minlashga intiladi. “Sure Start” markazlarining ijtimoiy xizmatlarni birlashtirganligi, ota-onalar bilan tizimli ishlash tajribasi juda samarali bo‘lganini ta’kidlash joiz [24; 45–47-b.]. “Every Child Matters” dasturidagi farovonlik ustunlari esa bolalar rivojlanishini faqat ta’lim emas, balki sog‘liq, xavfsizlik va jamiyatdagi ishtirok orqali baholashga yo‘naltirilgani bilan e’tiborni tortadi [10; 90-b.]. Menimcha, bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ta’lim samaradorligini faqat baho bilan o‘lchash yetarli emas. Bu borada AQSh tajribasiga e’tibor bergan jihat – TRIO va Pell Grants kabi dasturlar orqali

kam ta'minlangan va birinchi avlod talabalari uchun to'siqlarni kamaytirish mexanizmlari yaratilganligidir [16; 33-b.; 17; 55–57-b.]. Bu yondashuv yoshlar uchun ijtimoiy lift vazifasini bajargan. Ayniqsa, "Community Schools" dasturi orqali mahalliy resurslarni ta'lim bilan integratsiya qilish jarayonini kuzatish qiziqarli bo'ldi [18; 86-b.]. Bu yondashuvni O'zbekiston hududiy siyosatiga yaqin deb xisoblashimiz mumkin, chunki bizda ham hududlar kesimidagi tafovutlarni kamaytirish muhim masalalardan biri.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasi "aralash model" sifatida ko'rinadi. Bir tomondan, qamrov kengaymoqda va maktabgacha ta'lim sifat jihatidan yaxshilanmoqda, boshqa tomondan esa Prezident maktablari va "El-Yurt Umidi" jamg'armasi orqali yuqori sifatli yo'nalishlar va xalqaro bilim transferi faollashmoqda. Menimcha, bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldirib, tizimning butunligini ta'minlaydi. "Yoshlar daftari" dasturining manzilliligi esa oilalarning moliyaviy resurslari notekisligini qoplashda aniq amaliy yechim sifatida xizmat qilmoqda.

Bu borada Britaniya modeli xizmatlarni integratsiyalash orqali bolalikdan tenglikni kuchaytirishi, AQSh modeli esa grant va o'tish bosqichlariga e'tibor qaratishi O'zbekiston esa bu ikki tajribani uyg'unlashtirgan holda qamrov va sifatni birlashtirishga intilayotganligi muxim bo'ldi. Biz uchun asosiy vazifa credential qiymatini saqlash bilan bir qatorda amaliyotga yo'naltirilgan komponentlarni kuchaytirishdir (apprenticeship, stajirovka, mentorlash). Chunki aynan shu mexanizmlar yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va sotsial mobillikni barqarorlashtiradi. Taqqoslash natijasida ko'rish mumkinki, har bir mamlakat o'z kontekstiga mos mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ammo ularning umumiy xulosasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar sotsial mobilligini oshirish uchun integratsiyalashgan yondashuv talab qilinadi. Shu sababli quyida biz mexanizmlarni tizimli tarzda ko'rib chiqamiz.

Yoshlarda sotsial mobillikni oshirish mexanizmlari (Mechanisms for increasing social mobility among young people).

Tadqiqot davomida shuni kuzatish mumkinki, yoshlarning sotsial mobilligini ta'minlashda faqatgina ta'lim tizimining kengayishi emas, balki bir nechta qo'shimcha mexanizmlarning uyg'un ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida asosiy mexanizmlar tizimli ko'rinishda keltirdik:

- Yosh bolalik investitsiyasi. 2–5 yoshdagi rivojlanish bosqichi kelgusida ijtimoiy imkoniyatlarni belgilab beradigan "asosiy bosqich" hisoblanadi. Nutq, kognitiv va ijtimoiy-emotsional dasturlarni kuchaytirish, ota-onaga uyga borib maslahat berish (home-visiting) kabi modellar bolalikdan tenglikni ta'minlaydi.

- Ota-ona ishtirokini kuchaytirish. Oilaning ta'limdagi roli ko'pincha yetarli darajada baholanmaydi. "Family-School Compacts", ota-ona klublari, laboratoriyalar va mentorlash

tizimlari, shuningdek, raqamli savodxonlikni oshirish orqali oilaviy kapital ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir qiladi.

- Moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Stipendiyalar, grantlar va kreditlarning adolatli shartlari ijtimoiy tengsizlikni yumshatadi. Past daromadli oilalarga transport, oziq-ovqat va darslik paketlarini taqdim etish esa ta'limga kirishdagi yashirin to'siqlarni kamaytiradi.

- IT va xorijiy til ko'nikmalari. Zamonaviy mehnat bozorida IT, kommunikatsiya va xorijiy til kabi ko'nikmalar eng muhim kapital hisoblanadi. Shu bois, o'quv dasturlarida ingliz tili va it savodxonlikni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish talab qilinadi.

- Dual ta'lim va stajirovkalar. Universitet va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik stajirovkalar, modul asosida amaliyot va sertifikatlash orqali credentiallarning real qiymatini oshiradi. Bu esa yoshlarning ish bozoriga silliq o'tishini ta'minlaydi.

- Hududiy tengsizliklarni kamaytirish. Chekka hududlarda internet, infratuzilma va malakali o'qituvchilar yetishmasligi asosiy muammolardan biridir. Uy-joy paketlari, ustamalar va mobil laboratoriyalar bu bo'shliqni qisqartirishi mumkin.

- Monitoring va baholash. Ta'lim sifati indikatorlari (Britaniyadagi TEFga o'xshash), maqsadli moliyalashtirish modellaridan foydalanish (Pupil Premium tajribasiga yaqin), ochiq ma'lumotlar bazasi orqali shaffoflikni kuchaytirish zarur.

Taklif etilgan mexanizmlar ta'lim tizimi, oila va davlat siyosatining uyg'unligini ko'rsatib beradi. Ularni amalga oshirish orqali yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ortadi, sotsial tenglik mustahkamlanadi. Shu nuqtai nazardan, maqola yakunida umumiy xulosalarni jamlab, kelgusida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni ko'rsatib beramiz.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va ta'lim tizimi yoshlarning sotsial mobilligini belgilovchi eng asosiy omillar hisoblanadi. Oila bolaga boshlang'ich resurs va qadriyatlarni beradi, ta'lim esa bu resurslarni kengaytirib, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi.

Xorijiy tajribalar asosida (Buyuk Britaniya, AQSh) hamda O'zbekiston amaliyoti ko'rsatib turibdiki, erta yoshdan sarmoya kiritish, ota-ona ishtirokini kuchaytirish va ta'limdagi teng imkoniyatlarni ta'minlash ijtimoiy ko'tarilishning eng muhim shartlaridan biridir.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim diplomiga ega bo'lish yoshlar uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Biroq ta'lim tizimining o'zi yakka holda ijtimoiy ko'tarilishni kafolatlamaydi. Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun yoshlarning amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, raqamli savodxonlikni rivojlantirishi va turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatini shakllantirishi ham zarur omillardan biri sifatida qoraladi.

Shu bois, O'zbekistonda ta'lim siyosati va amaliyotida qamrovni kengaytirish bilan birga sifatni oshirish, hududiy tengsizliklarni kamaytirish va xalqaro tajriba asosida innovatsion dasturlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sorokin, P. A. Social Mobility. – New York: Harper & Brothers, 1927. – 559 p.
2. Giddens, A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Berkeley: University of California Press, 1984. – 417 p.
3. Bourdieu, P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – Cambridge: Harvard University Press, 1984. – 613 p.
4. Dahrendorf, R. Class and Class Conflict in Industrial Society. – Stanford: Stanford University Press, 1965. – 336 p.
5. OECD. Education at a Glance 2021: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 488 p.
6. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. – Washington, DC: World Bank, 2019. – 256 p.
7. Kuxterina, E. A. Социальная мобильность молодежи. – Moskva: Nauka, 2005. – 224 s.
8. Yunusov, A. Yoshlar kelajagi va ta'lim tizimi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020. – 198 b.
9. Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage, 1992. – 260 p.
10. HM Government. (2003). Every Child Matters: Change for Children. London: The Stationery Office. 120 p.
11. Melhuish, E., Belsky, J., & Barnes, J. (2010). Sure Start and Its Impact on Early Childhood Development. London: Department for Education. 156 p.
12. Department for Education (DfE). (2012). The Pupil Premium: Progress Report. London: DfE. 98 p.
13. Barnes, J., Ball, M., Meadows, P., & Belsky, J. (2013). The Family Nurse Partnership Programme in England. Oxford: Oxford University Press. 210 p.
14. Higher Education Funding Council for England. (2017). Teaching Excellence Framework (TEF) Report. London: HEFCE. 245 p.
15. U.S. Department of Health & Human Services. (2010). Head Start Impact Study: Final Report. Washington, DC: HHS. 134 p.
16. Chaney, B., & Muraskin, L. (1998). Evaluating Federal TRIO Programs: A Synthesis of the Research. Washington, DC: USDOE. 175 p.

17. U.S. Department of Education. (2021). Pell Grant End-of-Year Report, 2019–2020. Washington, DC: USDOE. 87 p.
18. Institute for Educational Leadership. (2015). Community Schools and Promise Neighborhoods: Lessons from Research. Washington, DC: IEL. 142 p.
19. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2021). Maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi nashriyoti. 76 b.
20. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablar faoliyati to‘g‘risida ma’lumotnoma. Toshkent: Xalq ta’limi vazirligi. 85 b.
21. “El-Yurt Umid” jamg‘armasi. (2023). Yillik faoliyat hisobotlari (2022–2023). Toshkent: Umid jamg‘armasi. 65 b.
22. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (2022). “Yoshlar daftari” dasturi bo‘yicha tahliliy hisobot. Toshkent: Yoshlar ishlari agentligi. 58 b.
23. IT Park Uzbekistan. (2023). Annual Report on Digital Skills Development. Toshkent: IT Park. 102 b.
24. UK Government. Sure Start and Every Child Matters Policy Papers. – London: UK Gov, 2010. – 135 p.